



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025

HUQUQIY FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHDA
RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Abdusattorova Farangiz Umidjon qizi
farangizabdusattorova81@gmail.com

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
Xalqaro huquq fakulteti Yuristprudensiya yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola, mamalakatimizda huquqiy faoliyatni amalga oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish hamda joriy etish islohotlari hamda ularning ijobiy va salbiy jihatlarini yoritadi. Shuningdek, maqolada texnologiyaning rivojlanishi qanday huquqiy oqibatlarga olib kelishi tahlil qilingan. Bundan tashqari, rivojlangan Yevropa mamlakatlarining qonunchilik modellaridan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga axborot va texnologiyani rivojlantirish va amalda bu sohani boshqarishga doir normalarni implementatsiya qilish haqidagi takliflar ham o‘rin egallagan. Maqolani o‘qish davomida, sizga xalqaro tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan aniq statistik jadvallar ilova qilinadi. Ular asosan kiberjinoyatlar va ularning yildan yilga o‘shish suratlarini aks ettiradi.

Kalit so‘zlar: kibernetika, autentifikatsiya, sun‘iy intellekt, yuridik kadrlar, huquqiy platforma, raqamli texnologiya, kiberjinoyat.

Аннотация: В этой статье освещаются реформы использования и внедрения цифровых технологий в осуществлении правовой деятельности в нашей стране, а также их плюсы и минусы. В статье также анализируются юридические последствия развития технологий. Кроме того, из законодательных моделей развитых европейских стран в Конституцию Республики Узбекистан внесены предложения об имплементации норм, касающихся развития информации и технологий и управления этой сферой на практике. На протяжении всего чтения статьи к вам будут прилагаться конкретные статистические таблицы, предоставленные международными



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025**

организациями. В основном они представляют собой картины киберпреступности и их роста из года в год.

Ключевые слова: Кибернетика, аутентификация, искусственный интеллект, юридический персонал, Юридическая Платформа, цифровые технологии, киберпреступность.

Abstract: This article highlights the reforms of the use and implementation of digital technologies in the implementation of legal activities in our country, as well as their pros and cons. The article also analyzes the legal implications of technology development. In addition, proposals have been made from the legislative models of developed European countries to the Constitution of the Republic of Uzbekistan on the implementation of norms related to the development of information and technology and the management of this area in practice. Throughout the reading of the article, specific statistical tables provided by international organizations will be attached to you. They mostly represent pictures of cybercrime and its growth from year to year.

Keywords: cybernetics, authentication, artificial intelligence, legal staff, Legal Platform, digital technologies, cybercrime.

XXI asr texnologiyalar asri. Bugungi kunda hayotimizning har bir jabhasi albatta, texnologiyalar bilan chambarchas bog‘liqdir. Zamon rivojlanib borar ekan, insonlarning faoliyatida ham ijtimoiy tarmoqlar, maxsus platformalar va albatta sun‘iy intellektning o‘rni tobora ortib bormoqda. Bunday globallashuv jarayoni huquq sohasini ham chetlab o‘tgani yo‘q. Bugungi kunda, rivojlangan mamlakatlarning huquq-tartibot organlari faoliyati internet jahon axborot tizimi bilan uzviy bog‘langan. Ular fuqarolar uchun barcha turdagi yuridik xizmatlarni, huquqiy qo‘llanma va lug‘atlarni ommaga tanishtirishni iloji boricha onlayn shaklda amalga oshirish samaraliroq usul ekanligini tan olmoqdalar. Shu sabab, yurtimizda



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025**

ham bu turdagi interaktiv xizmatlarni amalga oshirish ishlari jadallik bilan yo‘lga qo‘yilmoqda. Maqolamni o‘qir ekansiz, o‘zi bu amaliyot nima uchun kerak degan savol tug‘ilishi tabiiy, albatta. Hozir men sizlarga bunga sabab bo‘lgan bir qancha omillar haqida sanab o‘tmoqchiman:

Birinchidan, huquqiy me‘yorlarni amalga joriy etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish jarayonlarni soddalashtiradi hamda tezlashtiradi. Ya’ni bu, fuqarolar uchun ma’lum turdagi huquqiy ehtiyojlarini amalga oshirayotganlarida vaqtlarini maksimal darajada tejashga va ularni osonlikcha, maxsus platformalarda, uydan chiqmasdan turib bajarish imkoniyatiga ega bo‘lishlariga olib keladi.

Ikkinchidan, raqamli texnologiyalar bugungi kunda huquqiy faoliyatlarni amalga oshirishda shaffoflikni ta’minlovchi asosiy omillardan biridir. Bunday holatlarda, fuqarolar maxsus elektron platformalari orqali ular amalga oshirayotgan xizmatning qaysi bosqichda ekanligini bemalol kuztishlari mumkin. Ushbu xizmatlar davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlashga ko‘maklashadi.

Uchinchidan, huquqiy faoliyatda raqamli texnologiyalardan foydalanish resurslarni tejash imkoniyatini yaratadi. Bilamizki, bu sohani hujjatlarsiz va qog‘ozlarsiz tasavvur qilish qiyin. Agarda barcha ishlar onlayn shaklda amalga oshirilsa, biz ma’lum darajada ularni tejashga ko‘maklashamiz.

To‘rtinchidan, hozirda kuchli xavfsizlik tizimini yaratishda kibernetika muhim ahamiyat kasb etadi. Statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, barcha turdagi axborotlarni saqlashning eng xavfsiz usullaridan biri bu autentifikatsiya¹ va firewall² tizimlaridir. Bu ikkala tizim ham kompyuter orqali faollashtiriladi va avtomatik boshqariladi.

¹ Autentifikatsiya - kompyuter tizimi foydalanuvchisini haqiqiy yoki haqiqiy emasligini aniqlash jarayoni. Bu jarayonda tizim insonning haqiqiyligini aniqlaydi

² Firewall - bu kompyuter tarmog‘ida tashqaridan keluvchi zararli ma’lumotlarni to’sib, faqat ishonchli va xavfsiz ma’lumotlarni o‘tkazib yuboradigan dastur yoki qurilma



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025**



Biz shunday zamonda yashayapmizki, insoniyat deyarli barcha ishni texnologiyalar qo‘liga topshirish arafasida, hatto ayrim Yevropa davlatlari bu sohada ancha ilgari lab ham ketishdi. Xo‘sh, nega endi biz ham bu texnologiyalardan huquq sohasida foydalana olmaymiz? Agarda olimlar tomonidan huquqiy masalalarga yechim topuvchi sun‘iy intellekt ishlab chiqilsa, hayotimiz qay darajada o‘zgarishi mumkin? Bu kabi savollar talaygina. Bugun mamlakatimizda Adliya vazirligi tomonidan mana shu taklifni amalga oshirish ishlari yo‘lga qo‘yilgan. Ya‘ni, tez orada soha muataxassislari tomonidan yuqorida aytib o‘tgan sun‘iy intellekt ishlab chiqilishi va amalga joriy etilishi kutilmoqda. Ana endi bu ixtiro kashf etilgandan keyin, uning biz fuqarolar hayotiga ijobiy va salbiy jihatlarini ko‘rib chiqaylik:

Huquqiy masalalarga yechim topuvchi sun‘iy intellektning joriy etilishi, fuqarolarga bu xizmatdan bepul foydalanish imkonini yaratadi. Endilikda ko‘pchilik o‘zlarini qiziqtirgan savollariga batafsil va to‘liq javob topishlari mumkin bo‘ladi. Bu ixtironing yana bir ijobiy xususiyatlaridan biri shundaki, muammoli vaziyatlarga istalgan vaqtda, istalgan joyda javob topish imkoniyatini taqdim etadi. Shuningdek, huquq sohasida sun‘iy intellektidan foydalanish sud muhokamalari yoki ma‘muriy



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025**

sud jarayonlarida taxminiy yechimni oldindan bilishga imkonini beradi. Ya’ni, bu nisbatan aniq farazlarga asoslangan ishning yakunini bizga ma’lum qilishi mumkin.

Ana endi salbiy jihatlariga o’tadigan bo‘lsak, eng birinchi navbatda huquqiy kadrlar orasida ishsizlikning kuchayishiga olib keladi. Odamlar pullik xizmatdan ko‘ra ancha samaraliroq va tezroq ishlashi mumkin bo‘lgan sun’iy intellektni yurist va advokat xizmatlaridan ustun ko‘ra boshlaydilar. Ikkinchidan, agarda yurist va advokat xizmatlari saqlab qolinsa ham ularning oylik daramodlari maksimal darajada pasayishi kutiladi.

Raqamlashtirilgan tizim haqida so‘z yuritar ekanmiz, bu sohaning qonunchiligimiz nazaridan ham chetda qolmayotganiga guvoh bo‘lamiz. Xususan, hukumatimiz tomonidan “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi masalalarini ko‘rib chiqishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”³gi, “Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”⁴gi qarorlarini amalga kiritish borasida jadal islohotlar yo‘lga qo‘yilgan. Bundan tashqari, mamlakatimiz texnologik qobiliyatini oshirish hamda davlat organlari, xorijiy tashkilotlar bilan samarali aloqalarni yo‘lga qo‘yish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan 2024-yil 1-fevralda “Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi” tashkil etildi. Ushbu markazda 1-iyundan 5 yillik muddat davomida xorijiy tashkilotlar bilan bo‘ladigan huquqiy rejim tizimini raqamli texnologiyalar yordamida boshqarish eksperiment tarzida joriy etildi.

Zamonning rivojlanishi, globallashuv, texnologiyalarning taraqqiy etishi, insoniyat turmush tarzining o‘zgarishi, shubhasiz, yangiliklar kiritishimiz uchun asosiy omillardan biri bo‘ladi. Hozirgi kunda dunyoning ko‘plab mamlakatlari

³ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 16.09.2020 yildagi 557-son

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 30.05.2022 yildagi PQ-263-son



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025**

o‘zlarining asosiy qonunlariga raqamlashtirish va texnologiyalardan foydalanishga doir bazaviy normalarni kiritib kelmoqdalar. Ayniqsa bu yo‘nalishda Yevropa Ittifoqiga a‘zo davlatlar, xususan, Finlyandiya anchagina hayratlanarli natijalarga erishgan. Finlyandiya Konstitutsiyasining 16-moddasida⁵ davlat texnologik taraqqiyotni qo‘llab-quvvatlashi belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham bu sohani rivojlantirishga oid ilk normalar o‘z aksini topmoqda. Tajribali huquqshunoslarimiz tomonidan yangi huquqiy islohotlarni amalga oshirish ishlari jadallikda yo‘lga qo‘yilmoqda.


Jamiyatda qaysi soha yangi rivojlanishni boshlasa, odamlar orasida ommalashib boraversa va ko‘pchilik undan foydalansa, bu sohani tartibga soluvchi normalarni ishlab chiqish zaruriyati yuzaga keladi. Chunki bu kishilar o‘rtasidagi munosabatlarga o‘z ta‘sirini o‘tkazmay qolmaydi. Yangi turdagi huquqbuzarliklar, jinoyatlar paydo bo‘lishi ehtimoli oshadi. Shu sababli ham normalarning yaratilishi jinoyatlarni oldini olishi mumkin. Raqamli texnologiyalar, internet, ijtimoiy tarmoqlar, platformalar aynan hozirda rivojlanib borayotgan va ommalashayotgan sohalar. Deyarli har kuni texnologik yangiliklar e‘lon qilinmoqda. Shu bilan birga statistik ma‘lumotlar kiberjinoyatlar miqdori oxirgi o‘n yillikka qaraganda sezilarli darajada oshganini ko‘rsatdi. Bunday holatlar sohada kerakli huquqiy islohotlar o‘tkazish kerak ekanligidan dalolat beradi. Amerikalik huquqshunos va professor Lawrence Lessig internet va raqamli texnologiyalarning rivojlanishi, an‘anaviy huquq tizimlarining qiyinchiliklarga duch kelishini ko‘rsatadi va raqamli dunyoda yangi huquqiy me‘yorlarni ishlab chiqish zarurligini⁶ ta‘kidlagan edi.

⁵ <https://www.finlex.fi/en/laki/kaannokset/1999/en19990731.pdf>

⁶ Lessig, L. (1999). *Code and Other Laws of Cyberspace*. Basic Books



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025**



Biz kelajakda faoliyatimizni imkon qadar yengillatish maqsadida texnologiyalar ko‘magiga tayanmoqdamiz. Eng oddiy maishiy xizmatlardan tortib iqtisodiy, ijtimoiy sohalar singari huquq, davlat boshqaruvi va mahalliy boshqaruv tizimlari to‘liq avtomatlashtirilgan yagona bazalar orqali tartibga solinmoqda. Bularning barchasi, albatta, foydali lekin o‘z navbatida salbiy ijtimoiy va huquqiy oqibatlariga ham sabab bo‘ladi. Texnologiyalarga qaramlikning oldini olish maqsadida uni hukumat tomonidan ma’lum darajada nazorat qilib turiladigan tizimga solish ancha xavfsiz va foydaliroq bo‘ladi deb hisoblayman hamda agarda bu borada Konstitutsiyamizga ham rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ilhomlangan holda tegishli normalar kiritilib, ular asosida qonun va qonun osti xujjatlari qabul qilinsa, texnologik tizimimiz yanada mustahkamlanishi shubhasizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori “Oliy ta’lim tizimida ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish to‘g‘risida”, 2020-yil 16-sentabr, 557-son.



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025**

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasida gender tengligini ta’minlash bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida”, 2022-yil 30-may, PQ-263-son.

3. Lessig, L. (Lessig, L. (1999). *Code and Other Laws of Cyberspace*. Basic Books. ISBN: 978-04650391284.